



O'ZBEKISTONDA PENSIYA TIZIMINI RAQAMLASHTIRILISHI VA UNING AHAMIYATI

DIGITIZATION OF THE PENSION SYSTEM IN UZBEKISTAN AND ITS IMPORTANCE

**¹Nuriddinov Dilshod
Solijonovich**

*¹O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi,
E-mail: nuriddinovdilshod@gmail.com*

Annotation

Uzb - Maqolada O'zbekiston Respublikasida pensiya tizimini raqamlashtirishga berilayotgan e'tibor, bu bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar atroflichcha o'rganilgan va tahlil qilingan holda yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar berilgan.

Eng - In the article, the attention paid to the digitization of the pension system in the Republic of Uzbekistan, the measures implemented in this regard are thoroughly studied and analyzed, and proposals for further development are given.

Kalit so'zlar:
Keywords:

❖ Pensiya ta'minoti, pensiya tizimi, raqamlashtirish, pensiya dasturi.
❖ Pension provision, pension system, digitization, pension program.

Kirish.

Hammamizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilindi. Ushbu bosh Qomusimizning 1-moddasida O'zbekiston ijtimoiy davlat ekanligi qat'iy belgilab qo'yilgan. Shuning o'ziyoq pensiya tizimiga, yoshi ulug' insonlarga davlat darajasida qaratilayotgan yuksak e'tibor namunalaridan biridir. Qolaversa, bosh Qomusimizning 39-moddasida "Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega" ekanligi qayd etilgan. Zero, aholini ijtimoiy himoya qilish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Barcha turdag'i qilinayotgan islohotlardan asosiy maqsad - xalqimizning turmush darajasini oshirish, ularga yashashlari uchun

barcha sharoitlarni yaratish, pensiya yoshidagi insonlarga kelgusi hayotlarida farovon yashashlari uchun yetarli bo'ladigan pensiya bilan ta'minlash hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Davlat tomonidan pensiya tizimini qo'llab-quvvatlash uchun ko'plab mablag'lar yo'naltirilgani sayin uni nazorat qilish jarayoni ham murakkablashib boradi. Davlat mas'ul organlari tomonidan mablag'lar maqsadli sarflanganligi yuzasidan o'tkaziladigan tekshirishlar ijobjiy xulosalar shakllantirishga asos bo'lmaydi. Shu sababli davlat ushbu sohada risklarni minimallashtirish maqsadida inson omildidan voz kechib, tizimga axborot texnologilarini bosqichma-bosqich joriy etishni boshladi.

I.P.Denisova va M.Z.Muzaevlarning fikricha raqamlashtirish katta ma'lumotlar tahlili va boshqa raqamli texnologiyalar tomonidan ochilgan yangi imkoniyatlardan ijtimoiy xavflardan himoya qilishda manzillilik

va individuallashtirish tamoyilini amalga oshirishga imkon beradi. Shuningdek, raqamli ijtimoiy ta'minot platformasi keksa yoki yordamga muhtoj shaxsnинг hayot sifati darajasini nafaqat uning daromadi, balki oilaviy ahvoli, qo'shimcha tibbiy sug'urta mavjudligi to'g'risida real baholash imkonini beradi (I.P.Denisova va M.Z.Muzayev, 2019).

Ch.Lyu va V.A.Isayevlarning fikricha pensiya tuzilmalariga yangi axborot vositalarining joriy etilishi ma'muriy ishlarni, sifat nazoratini, xavfsizlik tekshiruvlarini yaxshilash imkonini beradi. Oddiy iste'molchilar uchun ushbu texnologoyalar hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonini soddalashtirishga, pensiya to'lovlarini miqdorini aniq hisoblashga yordam berdi (Ch.Lyu va V.A.Isayev, 2023).

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu mavzuni yoritishda tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Aholining eng quyi qatlamlarigacha davlatning mavjudligini bevosita his qildirib turuvchi vosita sifatida pensiya tizimini nazarda tutsak xato bo'lmasa kerak. Chunki, har bir oila yoki honadonda, ularning qarindoshlari ichida yoshi ulug' pensioner insonlar bor. Har bir inson mehnat qilib, mehnat qobiliyatini yo'qtgach pensiyaga chiqadi va oladigan pensiyasi umrining oxirigacha o'zining barcha xarajatlariga yetishini istaydi. Shu sababli davlatning pensiya sohasida qiladigan islohotlari aholini fikrini hisobga olgan holda qilinishi ko'plab noroziliklarni oldini oladi. Pensiya miqdorining oshirilishi yoki qandaydir qo'shimcha yoki ustamalarning joriy etilishi aholi kayfiyatiga juda tez ijobiy ta'sir ko'rsatadi yoki aksincha holatlarda salbiy kayfiyatni yuzaga keltiradi.



1-rasm. Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tomonidan pensiya va nafaqalarni tayinlash va to‘lash “Pensiya” dasturiy majmuasiga o‘tkazilishi munosabati bilan eng ko‘p turdagani aniqlangan noqonuniy holatatlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-maydagi PQ-5102-sonli “Fuqarolarga davlat pensiyalarini tayinlash jarayonini soddalashtirish hamda pensiya va nafaqalarni yetkazish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorini alohida e’tirof etish lozim. Chunki, 2023-yil 1-yanvardan boshlab:

- davlat pensiyalarini tayinlashda fuqarolardan mehnat staji, ish haqi, oliy ta’lim muassasalaridagi o‘qish hamda harbiy xizmat davri to‘g‘risidagi hujjatlarni talab qilish bekor qilindi. Bunda, pensiyaga chiqish huquqi paydo bo‘lgan chog‘ida ishlaraydigan fuqarolarga o‘zlarining mehnat daftarchalaridagi mehnat staji to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Bandlikka ko‘maklashish markazlariga murojaat qilish orqali “Yagona mehnat milliy tizimi” idoralararo dasturiy-apparat kompleksi (YAMMT IDAK) ga kiritish xizmati joriy etildi;

- davlat pensiyalarini tayinlash YAMMT IDAKga kiritilgan elektron ma’lumotlar asosida amalga oshirilishi belgilandi. Bunda, mehnat staji, ish haqi, oliy ta’lim muassasalaridagi o‘qish hamda harbiy xizmat davri to‘g‘risidagi hujjatlar Pensiya jamg‘armasi tomonidan YAMMT IDAKdan foydalangan holda elektron ma’lumotlar almashinuvni asosida olinishi belgilandi.

- davlat pensiyalarini tayinlash uchun fuqarolardan faqat pasport yoki identifikatsiya ID-kartasi talab etilishi belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-oktyabrdagi PQ-353-sonli “Ahola pensiya tayinlash bo‘yicha ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari sifatini yanada oshirishga qaratilgan qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori orqali aholiga

ko‘rsatilayotgan pensiya xizmatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini tatbiq qilgan holda yanada qulayroq, tezroq va eng asosiysi byurokratik to‘siqlarni chetlab o‘tgan holda aholiga sifatli davlat xizmatini yo‘lga qo‘yish maqsad qilingan.

Qarorga asosan 2024-yil 1-yanvardan boshlab fuqarolarga davlat pensiyalarini tayinlash uchun amaldagi tartibga qo‘srimcha ravishda ularning xohishiga ko‘ra Davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ham murojaat qilishlari mumkinligi belgilandi. Fuqarolarga davlat pensiyalari tayinlangandan so‘ng ularning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘larini Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoki AT “Xalq banki”ning Xazna mobil ilovasi orqali olish imkoniyati yaratildi, avvallari ushbu mablag‘larni olish uchun fuqarolar Pensiya jamg‘armasi tuman (shahar) bo‘limlari tomonidan shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘larni olish huquqini beruvchi sertifikat olishi va ushbu sertifikatni hududdadi Xalq banki filiallariga taqdim etishi talab etilardi.

2025-yil 1-martdan boshlab fuqarolarga yoshga doir pensiyalarni “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuning 7-moddasida belgilangan yoshga to‘lishi munosabati bilan alohida murojaat talab etmagan holda proaktiv shaklda tayinlash tartibi joriy etiladi. Ya’ni erkaklar 60 yoshga to‘lganda va ayollar 55 yoshga to‘lganda ariza bilan murojaat etmagan taqdirda ham avotamatik ravishda pensiya tayinlanadi yoki rad etadi. Ushbu jarayon 2-rasmida aks ettirilgan.



1

- Pensiya yoshiga to'lgan fuqaroning pasport (identifikatsiya ID-karta) ma'lumotlarini Iqtisodiyot va moliv vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasining "Pensiya" axborot tizimiga lektron shaklda yuboradi.

2

- Pensiya tayinlash vakolatiga ega organlarga pensiya yoshiga to'lgan fuqaroga pensiya tayinlangan yoki tayinlanmaganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni olish uchun axborot tizimi orqali elektron so'rov yuboradi.

3

- Pensiya yoshiga to'lgan fuqaroga pensiya tayinlangan yoki tayinlanmaganligi to'g'risidagi elektron ma'lumotlarni Iqtisodiyot va moliv vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasining "Pensiya" axborot tizimiga yuboradi.

4

- Pensiya yoshiga to'lgan fuqaroga pensiya tayinlanganligi to'g'risida ma'lumotlar kelib tushgan taqdirda pensiya tayinlash jarayonini to'xtatadi.
- Pensiya yoshiga to'lgan fuqaroga pensiya tayinlanmaganligi to'g'risida ma'lumotlar kelib tushgan taqdirda, Ichki ishlar vazirligining "Manzil" axborot tizimiga pensiya yoshiga to'lgan fuqaroning mahalla fuqarolar yig'ini kesimida yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlarni olish uchun axborot tizimi orqali elektron so'rov yuboradi.
- Pensiya yoshiga to'lgan fuqarolarga pensiya tayinlanmaganligi to'g'risida elektron ma'lumotlar kelib tushgan taqdirda, Elektron texnologiyalarini rivojlantirish markazi axborot tizimiga pensiya yoshiga to'lgan fuqaroning nomiga rasmiylashtirilgan mobil telefon raqami yoki mobil telefon raqami rasmiylashtirilmaganligi haqidagi ma'lumotlarni Iqtisodiyot va moliv vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasining "Pensiya" axborot tizimiga yuboradi.

5

- Pensiya yoshiga to'lgan fuqaroning mahalla fuqarolar yig'ini kesimida yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlarni Iqtisodiyot va moliv vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasining "Pensiya" axborot tizimiga yuboradi.
- Pensiya yoshiga to'lgan fuqaroning nomiga rasmiylashtirilgan mobil telefon raqami yoki mobil telefon raqami rasmiylashtirilmaganligi haqidagi ma'lumotlarni Iqtisodiyot va moliv vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasining "Pensiya" axborot tizimiga yuboradi.
- Pensiya yoshiga to'lgan fuqaroning nomiga rasmiylashtirilgan mobil telefon raqamiga pensiya tayinlash masalasi 10 kun muddat ichida ko'rib chiqilishi to'g'risida SMS-xabar yuboradi.

6

- "Pensiya" axborot tizimidagi mayjud pensiya yoshiga to'lgan fuqaroning ish stoji, ish haqi, ustama olish huquqini beradigan elektron ma'lumotlar asosida dastlab fuqaroning pensiyaga bo'lgan huquqini aniqlaydi, pensiya miqdorini hisoblaydi va pensiya tayinlaydi.
- Pensiya tayinlangan taqdirda, pensiya yoshiga to'lgan fuqaroning nomiga rasmiylashtirilgan mobil telefon raqamiga pensiya turi, pensiya miqdori, pensiya tayinlash muddati, pensiya to'lov shakli va pensiya to'lash sanasi to'g'risida SMS-xabar yuboradi.
- Agar fuqaroning nomiga mobil telefon raqami rasmiylashtirilmagan bo'lsa, pensionerga ushbu ma'lumotlarni uning yashash joyi bo'yicha "O'zbekiston pochtasi" Ajning Elektron pochta jo'natmalarining yagona milliy tizimi orqali yetkazadi.
- Fuqaro tayinlangan yoshga doir pensiya miqdoridan norozi bo'lganida yoki mehnat faoliyatini davom ettirib, yoshga doir pensiyaga keyinchalik chiqish xohishini bildirgan taqdirda, Pensiya jamg'armasi bo'limiga tashrif buyurgan holda ariza berish orqali tayinlangan pensiyani rad qiladi.
- Pensiya tayinlash rad etilgan taqdirda, fuqaroning nomiga rasmiylashtirilgan mobil telefon raqamiga rad etish sababları, qo'shimcha hujjat taqdim qilish muddati, tartibi va qabul qilingan qaror yuzasidan shikoyat qilish tartibi to'g'risida SMS-xabar yuboradi.
- Agar fuqaroning nomiga mobil telefon raqami rasmiylashtirilmagan bo'lsa, pensionerga ushbu ma'lumotlarni uning yashash joyi bo'yicha "O'zbekiston pochtasi" Ajning Elektron pochta jo'natmalarining yagona milliy tizimi orqali yetkazadi.

7

- Pensiya tayinlanganligi yoki tayinlash rad etilganligi to'g'risidagi xabarnomani pensioner yoki pensiya yoshiga to'lgan fuqaroning yashash joyiga yetkazib beradi.

2-rasm. O'zbekiston Respublikasida 2025-yil 1-martdan boshlab avtomatik tarzda tayinlanadigan yoshga doir pensiyalarning tayinlash bosqichlari



Pensiya jamg‘armasi tomonidan Pensiya yoshiga to‘lgan fuqaroning nomiga rasmiylashtirilgan mobil telefon raqamiga pensiya tayinlash masalasi 10 kun muddat ichida ko‘rib chiqilishi to‘g‘risida SMS-xabar yuboriladi. “Pensiya” axborot tizimidagi mavjud pensiya yoshiga to‘lgan fuqaroning ish staji, ish haqi, ustama olish huquqini beradigan elektron ma’lumotlar asosida dastlab fuqaroning pensiyaga bo‘lgan huquqini aniqlaydi, pensiya miqdorini hisoblaydi va tayinlaydi. Pensiya tayinlangan taqdirda, pensiya yoshiga to‘lgan fuqaroning nomiga rasmiylashtirilgan mobil telefon raqamiga pensiya turi, pensiya miqdori, pensiya tayinlash muddati, pensiya to‘lov shakli va pensiya to‘lash sanasi to‘g‘risida SMS-xabar yuboradi. Agar fuqaroning nomiga mobil telefon raqami rasmiylashtirilmagan bo‘lsa, pensionerga ushbu ma’lumotlarni uning yashash joyi bo‘yicha “O‘zbekiston pochtasi” AJning Elektron pochta jo‘natmalarining yagona milliy tizimi orqali yetkazadi. Fuqaro tayinlangan yoshga doir pensiya miqdoridan norozi bo‘lganida yoki mehnat faoliyatini davom ettirib, yoshga doir pensiyaga

keyinchalik chiqish xohishini bildirgan taqdirda, Pensiya jamg‘armasi bo‘limiga tashrif buyurgan holda ariza berish orqali tayinlangan pensiyani rad qiladi. Pensiya tayinlash rad etilgan taqdirda, fuqaroning nomiga rasmiylashtirilgan mobil telefon raqamiga rad etish sabablari, qo‘srimcha hujjat taqdim qilish muddati, tartibi va qabul qilingan qaror yuzasidan shikoyat qilish tartibi to‘g‘risida SMS-xabar yuboradi.

Avtomatik tarzda yoshga doir pensiyalar tayinlanadigan davlatlar odatda pensiya tizimlarini raqamlashtirgan va avtomatlashtirgan davlatlar hisoblanadi. Bu davatlarda fuqarolar pensiya olish huquqiga ega bo‘ladigan yoshga yetishlari bilan avtomatik tarzda pensiya tayinlanadi va hujjatlar yoki arizalar taqdim etish zarurati bo‘lmaydi. Avtomatik pensiya tizimi ko‘plab Yevropa va ba’zi rivojlangan mamlakatlarda mavjud bo‘lib, bu tizim fuqarolarni pensiya olishida quaylik yaratadi va byurokratik to‘siqlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Ushbu davatlarning ayrimlari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Avtomatik pensiya tizimi mavjud ayrim rivojlangan davlatlar

Nº	Mamlakat	Izoh
1	Niderlandiya	Pensiya tizimini avtomatlashtirgan davatlardan biridir. Fuqarolar pensiya olish huquqiga ega bo‘lganda, bu jarayon avtomatik ravishda boshlanadi
2	Shvetsiya	pensiya tizimi raqamlashtirilgan va avtomatik ravishda yoshga doir pensiya tayinlanadi. Fuqarolar o‘z pensiyasini olish huquqiga ega bo‘lganda, davlat avtomatik tarzda ularni pensiya olish uchun ro‘yxatdan o‘tkazadi
3	Germaniya	Avtomatik pensiya tizimi mavjud. Shuningdek, pensionerlarni taqsimlash va pensiya to‘lovlarini amalga oshirish tizimi shunday tashkil etilganki, fuqarolar pensiya olish huquqiga ega bo‘lganda, tizim ularni avtomatik ravishda ro‘yxatga oladi
4	Kanada	Davlat tomonidan yoshga doir pensiya tizimi mavjud bo‘lib, fuqarolar pensiya olish huquqiga ega bo‘lganda, davlat avtomatik tarzda pensiya to‘lovlarini boshlaydi. Buning uchun maxsus ariza topshirish zarurati yo‘q
5	Estoniya	Elektron hukumat tizimi orqali fuqarolarga avtomatik pensiya tayinlash imkoniyatini taqdim etadi. Agar fuqarolar tizimda ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsa va pensiya olish huquqiga ega bo‘lsa, pensiya to‘lovlari avtomatik ravishda amalga oshiriladi
6	Avstraliya	Avstraliyada “Superannuation” tizimi orqali pensiya to‘lovlari avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Xalqaro miqyosda bu tizim raqamli platformalar orqali nazorat qilinadi



Xulosa va takliflar.

Shuningdek, 2025-yil 1-martga qadar Iqtisodiyot va moliya vazirligiga Raqamli texnologiyalar vazirligi va mobil aloqa operatorlari bilan birgalikda beg'araz asosda fuqaroning mobil aloqa vositasiga pensiya ta'minotiga oid bo'lgan SMS-xabarlar yuborilishini ta'minlash vazifasi ham topshirildi. Bundan ko'rish mumkinki respublikamizda pensiya tizimini raqamlashtirish borasidagi islohotlar o'z samarasini bermoqda.

Pensiya tizimini raqamlashtirishda chet el davlatlari tajribalari asosida quyidagi takliflarni keltirib o'tish mumkin:

1. Fuqarolar o'z pensiya hisoblarini istalgan vaqtida onlayn kuzatib borishlari va

boshqarishlari mumkin bo'lishi uchun xavfsiz raqamli platforma yaratish;

2. Fuqarolarga pensiya to'lovlar bo'yicha raqamli maslahatlarni olishi, pensiyaga chiqish bo'yicha maslahat berib boradigan, real vaqt rejimida ishlab turgan ish haqi va ish stajini hisobga olgan holda qancha pensiya olish bo'yicha fuqarolarga maslahat berib boradigan raqamli mobil ilova ishga tushirish;

3. Amalga oshirilayotgan raqamlashtirish islohotlari ikkinchi tomonidan axborot xavfsizligini boshqarish, axborot tizimlari xavfsizligi darajasini muntazam oshirib borish va axborot xavfsizligi madaniyatini shakllantirishni taqozo etadi.

Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Manba: www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-maydagi PQ-5102-sonli "Fuqarolarga davlat pensiyalarini tayinlash jarayonini soddallashtirish hamda pensiya va nafaqalarni yetkazish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-oktyabrdagi PQ-353-sonli "Aholiga pensiya tayinlash bo'yicha ko'rsatiladigan davlat xizmatlari sifatini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.
4. Denisova I.P., Muzaev M.Z. (2019) Improving the activities of the pension fund // The scientific heritage. 2019.Nº35.P.6-8
5. Ch.Lyu, V.A.Isayev (2023) Traditional and new methods of pension authentication in China: reasons, Methods and problems // The world of new economy. 2023.Nº1.P.6-11
6. Tursunov J.P. (2018) O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimining o'ziga xos xususiyatlari va jahon tajribasi // Mehnat bozori va ijtimoiy himoya. 2018.Nº3.P.53-58
7. Ziyadullayev M.J. (2021) O'zbekistonda ijtimoiy ta'minot huquqi va pensiya ta'minoti sohasida 2017-2021 yillarda amalga oshirilgan tub islohotlar // Jamiyat va innovatsiyalar. 2021.Nº8.P.121-127
8. <http://www.lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.